



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI
NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

Til va adabiyot, chet tillarni o'qitishning
zamonaviy yondashuvlari

xalqaro talabalar anjumani maqolalar to'plami

Namangan - 2023

Til va adabiyot, chet tillarni o'qitishning zamonaviy yondashuvlari

27	Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining xatolarini bartaraf etish kompetensiyalarini takomillashtirish yuzasidan olib borilgan ilmiy-metodik ishlar tahlili Q. Xasanova	91
28	Chet til darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faolligini zamonaviy metodlar asosida shakllantirish usullari. S.Bilolidinova, V.A. Ermatova	96
29	Chet tillarini o'qitishning zamonaviy yondashuvlari M.Q. Abdullayeva	97
30	Xorijiy tillarni mustaqil o'rganishning samarali usullari S.Adhamjanova, U.Soliyev	102
TIL BA ADABIYOT, TIL NAZARIYASI MUAMMOLARI		
31	Xitoy tilida joy nomlarining ifodalanishi D.D.Mamidova, J.T.Kuralova	106
32	Is'hoqxon ibrat asarlarining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati G.Jo'rayeva, U. Soliyev	108
33	Zahiriddin muhammad boburning mehr-muruvvat olamiga doir qarashlari H.A.Muradova	112
34	Некоторые вопросы прозы А.С.Пушкина Наталия Соколова	116
35	Xitoy ertaklarida epik makon tushunchalarini berilishi D.Sh.Saydaxmedova	118
36	Yovvoyi hayvon nomlari orqali inson obrazi tasvirlash usullari (o'zbek tilidagi o'xshatishlar misolida) A.Sh.Hatamova	122
37	O'zbekistonda turizmni rivojlantirish imkoniyatlariga doir M.M. Mazamjonova	127
38	Jeyms Joys she'riyatining o'ziga hos hususiyatlari N.U. Egamova	129
39	Dunyo tilshunosligida "Terminologiya va termin" tushunchalarining vujudga kelish omillari D.Hamdamov, G.S.Hojiyeva.	133
40	Internet tilining zamonaviy xitoy tiliga ta'siri N.X. Norbekova, J.T. Kuralova.	137
41	Xorijiy tillarni mustaqil o'rganishning samarali usullari S. Adhamjanova, U.Soliyev	140

Til va adabiyot, chet tillarni o'qitishning zamonaviy yondashuvlari

Ular biror- bir dard, orzu yoki go'zallikni kuylash uchun yaratiladi. Joys shu tuyg'ularni she'rlariga ko'chira olgan buyuk shoirdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Blake, William, The complete poems, 3rd edition, ed. by W.H Stevenson (London: Longman 2007).
2. Wordsworth, William, The Prelude: 1799, 1805, 1850 ed. by Jonathan Wordsworth et al. (New York: W.W. Norton, 1979)
3. Lennartz, N. "The Ache of Modernism": James Joyce's Pomes Penyeach and Their Literary Context. University of Vechta
4. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/j/jeyms/>
5. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/valentina-ivasheva-jeyms-joys/?ing=lat>
6. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/James_Joyce
7. <https://www.theguardian.com/books/2014/jun/16/ecce-puer-james-joyce>
8. https://archive.org/details/pomespenyeach_2301/librivox
9. <https://www.bl.uk/people/james-joyce>

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA "TERMINOLOGIYA VA TERMIN"

TUSHUNCHALARINING VUJUDGA KELISH OMILLARI

D. Hamdamov, G.S. Hojiyeva. Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqola dunyo tilshunosligida terminologiyaning soha sifatida tutgan o'rni, uning asosi bo'lgan "termin"ga ta'rif, bu borada xorij va o'zbek olimlarining soha rivojiga qo'shgan hissasi va terminologiya doirasidagi izlanishlarga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: til, tilshunoslik, terminologiya, termin, atama, tushuncha, izohli lug'at.

Til — inson ma'naviy olamida uning o'zligini anglash yo'lidagi eng buyuk kashfiyotidir. Zero davrlar mobaynida tilni tadqiq qilar ekan inson, uning yangi va yangi qirralarini kashf qilib boradi. Shu tariqa *tilshunoslik* deb ataluvchi so'zlar va ularning o'ziga xos xususiyatlaridan tashkil topgan ulkan "piramida" bunyodga keldi va hali-hamon uning qirralari kengayib bormoqda [2,12].

Tilshunoslik soha sifatida tadqiq etilar ekan, terminologiya uning muhim bo'g'ini sifatida ajralmas qismiga aylanib, bugungi kunda uning fanda bir necha ta'riflari mavjud.

✓ Terminologiya (lotincha *terminus* – chegara + yunoncha *logos* – fan, ta'limot) bir necha ma'nolarini o'zida aks ettiradi:

1. Fan, texnika, kasb-hunarning bir sohasida qo'llaniladigan terminlar majmui. Masalan, o'zbek tili terminologiyasi.
2. Tilshunoslikning terminlarni o'rganish, tartibga solish bilan shug'ullanuvchi sohasi. Masalan, terminologiya bo'limi, terminologiya mutaxassisi [9.74.]

Til va adabiyot, chet tillarni o'qitishning zamonaviy yondashuvlari

✓ Terminologiya — muayyan bir sohaga oid terminlar majmui va tilshunoslikning terminlarni tartibga solish haqidagi sohasi. Masalan, grammatika terminologiyasi, terminologiya masalalari. [18,564.]

✓ Terminologiya – terminlar to'plamidir. Terminlar leksik birliklar bo'lib, ularning ma'nosi ixtisoslashtirilgan matnlarda mutaxassislar tomonidan belgilanadi [5].

✓ Terminologiya – bu bir tizim, eng avvalo, aniq bir terminologik sistemaga xizmat qiluvchi maxsus so'zlarning lisoniy tartiblanganligi, ya'ni terminlar yig'indisi hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, turli terminosistemalar “milliy tilning leksik sistemasida mavjud bo'lgan, aniq, to'liq va keng doirada ifodalanuvchi leksik sistema, ilmiy nazariyalar, qonunlar, tamoyillar, qoidalar shakllantiriladigan vositadir [10,250].

✓ Terminologiya — har bir muallifning o'zi yaratadigan o'ziga xos til [7,350].

Terminologiyaning asosini tashkil etgan terminlar xususida ham olimlarning bir necha xil ta'riflarini keltirish mumkin. Jumladan:

➤ Termin – maxsus lug'atdir. Masalan, informatika, matematika, meditsina, falsafa, grammatika, lingvistika, musiqa va boshqa sohalarga doir [11].

➤ Terminlar fan-texnika, adabiyot, san'at va boshqa sohalarga oid ixtisoslashgan, qo'llanishi muayyan soha bilan chegaralangan tushunchalarni ifodalaydigan nominativ birliklardir: gulkosa, shona (botanikada); to'rtburchak, kvadrat (geometriyada); ega, kesim (tilshunoslikda); qofiya, turoq, vazn (adabiyotshunoslikda)” kabilardir [4,12].

Bugungi kunda termin tushunchasiga tilda 3000 dan ortiq ta'riflar keltirilganligiga qaramasdan, uning to'liq mazmuniy mohiyati butunlay aniqlanganicha yo'q. Binobarin, “termin ta'rifi xususida ilmiy adabiyotlarda ko'pdan-ko'p mulohazalar bildirilgan. Deyarli barcha ta'riflarda termin maxsus ilmiy-texnikaviy tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi tarzida tavsiflanadi” [6,23].

Bizning nazarimizda, terminlar tilning shakl va mazmun chegaralarini, polisemiya va variativlik qonuniyatlari leksikasida kechayotgan innovatsion jarayonlarni, turli sohalar kesimida morfologik, struktur, derivatsion qonuniyatlarni, funksional, konseptual tamoyillarni, frazeologik, distributiv, diskursiv, statistik, qiyosiy-tipologik, leksik-semantik, milliy-madaniy jihatlarni, pragmatik, lingvostilistik, leksikografik masalalarni, tavsifiy-tasnifiy, universal, differensial belgilarni mufassal o'rganishda hamda keng tahlil etishda xizmat qiladi. Ana shu lisoniy birliklar majmui nuqtai nazaridan qaralganda, terminlar tilning tizimli xususiyatlarini o'zida mujassam etadigan madaniyat va milliy tafakkur majmuini tashkil etadi. Shu bois, tilshunoslikda terminologiyani chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi [3,14].

Terminologiya sohasida uzoq yillar mobaynida ko'plab dunyo olimlari tadqiqotlar olib bordilar. Uning fan sifatida tarkib topishi avstriyalik olim O.V.Nubasov va rus olimi D.S.Lotting 1930 yilda e'lon qilingan dastlabki ishlariga borib taqaladi [2,14].

Terminologiyani sistema sifatida ham birinchilardan bo'lib D.S.Lotte qayd etadi va uni sistema sifatida belgilovchi uchta talabni keltiradi: 1) terminologik sistema

tushunchalarni tasniflashga asoslanishi lozim; 2) tasniflovchi sxemalarga asoslangan holda terminlashuvchi belgi va tushunchalarni ajratib olish lozim; 3) so'zlar terminlashuvchi tushunchaning boshqalari bilan umumiyligi va o'zining xususiyligini ifodalashi kerak [16,13-14].

A.D.Xayutin ingliz tilining etimologik lug'atiga asoslanib, "terminologiya" so'zi ilk bor 1786 yilda nemis olimi S.Shyutz tomonidan qo'llanilganini aytadi. A.D.Xayutinning aniqlashicha, mazkur so'z ingliz, fransuz tillarida XVIII asr oxirlaridan, rus tilida esa XIX asr boshlaridan iste'molga kirib kelgan [8,10].

Mashhur shvesariyalik tilshunos olim Ferdinand de Sossyurning fikriga ko'ra, "Barcha lingvistik konsepsiyalar tabiatning belgilarini va tilning tizimli xususiyatlarini asoslaydi, uning asosiy g'oyalaridan biri so'zlashuv hamda tilning nutqiy faoliyatdagi farqlari hisoblanadi, qolaversa, terminologiya o'ziga xos ilmiy fan bo'lib, u tilshunoslik, bilimlar nazariyasi va mantiqdan kelib chiqadi" [1,191].

Termin va uning o'ziga xos tizim sifatida, shuningdek, terminologiyaning fan sifatida shakllanishida ahamiyatli fikrlarni qayd etgan A.A.Reformaskiyning ta'kidlashicha: "Tilshunos uchun terminning tabiatini tushunish yanada muhim, chunki bu so'z va so'z birikmasining semantikasi haqidagi tasavvurni oshiradi va eng muhimi, so'zda lug'aviy va mantiqiy ma'nolar munosabatini aniqlashga imkon beradi. Bu esa, ya'ni so'zning mazmun qurilishidagi leksik va mantiqiy, lug'aviy va ma'noviy semantikani tushunish so'zning o'zini ham, uning polifunksional xususiyatini tushunishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Terminlar – ilmiy nazariyalar, qonunlar, tamoyillar, qoidalar shakllantiriladigan vosita bo'lib, ijtimoiy majburiy xususiyat esa atamalarda aks ettiriladi" [17,16]. Shu o'rinda A.A.Reformatskiyning fikriga qo'shilish mumkin. Zero, tilshunos uchun ilm-fanning turli sohalarida amal qilayotgan terminlarning yasash mexanizmlarini o'rganish ham qiziqarli, ham muhimdir, chunki termin funksiyasida barcha so'zlar – tub so'zlar ham, yasama so'zlar ham, so'z birikmasi ham, gap ham qo'llanilishi kuzatiladi. Shuning uchun terminning hosil bo'lish tamoyillarini chetlab o'tib bo'lmaydi.

Soha rivojiga rus olimlaridan, V.G.Gak, O.S.Axmanova, S.O.Karsevskiy, V.V. Antimirova, V.A.Tatarinov, A.L.Abramyan, B.N.Golovin, R.Yu.Kobrin, V.P.Danilenko, M.A.Marusenko, A.A.Strelsov, N.M. Golubeva-Monatkina, fransuz olimlaridan F.de Sossyur, o'zbek olimlaridan M.Xolbekov, P.Nishonov, O.Ahmedov, J.Bo'ronov, M.Bo'ronova, M.Toshboyeva, X.Dadaboyev, M.Umarxo'jayev, N.Qambarov va D.Xodjayevalar o'z tadqiqotlari bilan munosib hissa qo'shdilar [12,149-159].

Xususan, rus olimi V.G.Gakning fikricha, har qanday lug'aviy birlik termin bo'lishi uchun: 1) obyektiv borliqdagi biror narsani ifodalay olishi; 2) tushunchalar qatoridan muayyan joy egallash xususiyatlariga ega bo'lishi lozim [14,38-41].

Demak, biror narsa, hodisani ifodalay oladigan va tushunchalar sirasidan o'ziga xos o'rin egallaydigan har qanday lug'aviy birlikni termin sifatida ishlatish mumkin. Ma'lumotlarga tayanib aytadigan bo'lsak, so'z bilan termini farqlashning yana bir

muhim belgisi bu soʻzning narsa, hodisa, predmetni, terminning esa tushunchani ifodalashidir. Tushuncha esa, narsa va hodisaning umumlashma mavhum nomi boʻlib, bu holatni hisobga olish muhim sanaladi [2,18].

Fransuz olimlaridan, Gi Rondo (Guy Rondeau, Introduction à la terminologie, Boucherville, Québec, Gaëtan Morin, 2^e éd., 1984, 238 p.), Mariya Tereza Kabre Kastelvi (Maria Teresa Cabré Castellvi, La terminologie. Théorie, méthode et applications, Paris, Armand Colin, 1998, 322 p.), Mari-Klod Lom (Marie Claude l'Homme, La terminologie. Principes et techniques, Presses de l'université de Montréal, 2004, 278 p.) kabilar ham terminologiya sohasida oʻz tadqiqotlarini amalga oshirdilar [11].

Turli fan sohalariga oid terminlar oʻzbek tilshunosligida dastlab XX asrning 20-30 yillarida oʻrganila boshlangan. Terminlarni oʻrganishdan asosiy maqsad chet tillaridan kirib kelayotgan soʻzlarni oʻz ona tilimizga aynan mos tushadigan soʻzlarga almashtirish va tarjima qilishdir. Shu sababli terminologiyaning paydo boʻlishi va rivojlanishi nafaqat bir tildagi atamalarni tahlil qilish, balki bir tildagi atamani boshqa tillar bilan qiyoslab, ularning leksik-semantik va milliy-madaniy xususiyatlarini oʻrganishga va izohli lugʻatlarni shakllantirishga ham yoʻl ochdi. Natijada terminologiyaning shakllanishi yana bir muhim qadam — izohli lugʻatlarning paydo boʻlishi, hamda ularning barcha jabhalarni qamrab olishiga sabab boʻldi.

Oʻzbek tili terminologiyasi masalalariga birinchilardan boʻlib, Ulugʻ Tursunov oʻzining “Til-terminologiyada burjuaziya intilishlariga qarshi”, “Oʻzbek terminologiyasi masalalari”, “Terminologiya masalalari”, “Oʻzbek adabiy tilida soʻz-terminlar tanlash prinsiplari” nomli asarlari bilan asos soldi [13,82]. Bu asarlarda terminlarni hosil qilish, toʻplash, tartibga solish, unifikatsiyalash va nashr etish sohasidagi turli qarashlar va tushunchalar, sohada roʻy bergan va roʻy berayotgan chalkashliklar yaqqol koʻzga tashlana boshlanganligi, jumladan, bir tushunchaning turlicha atala va yozila boshlashi, aniq va ixcham terminlar oʻrniga uzundan uzoq izohlarning berilishi, termin yaratishda ona tili imkoniyatlaridan kam foydalanish, oʻzbek terminologiyasini boyitishdagi manbalardan biri tashqi omilga turlicha yondashish faktlari ekanligi koʻrsatib oʻtilgan.

Terminologiya hamda terminlar xususida yuqorida bildirilgan fikrlardan xulosa qilib aytish mumkinki, terminologiya — biror ilmiy yoki ijtimoiy sohaga doir terminlar jamlanmasidir. Uning vazifasi nafaqat terminlarni ajratish yoki tahlil qilishdan, balki, maqsadga erishish va maʼnoni anglatish yoʻlida yangi terminlarni kashf etishdan ham iborat, deyish mumkin. Shu nuqtai nazardan, terminlar — maxsus sohaga doir lugʻatlar boʻlib, bunday lugʻatlar aynan bir maqsadga yoʻnaltirilgan bir yoki bir necha tilli boʻlishini qayd etish oʻrinli.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bushuy T.A., Safarov Sh.S. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi ilmiy-nashr. – Toshkent, «Fan», 2007. – B.191.
2. Hojiyeva G.S. Sanʼatga oid terminlarning leksik-semantik va milliy-madaniy tahlili (fransuz va oʻzbek tillari misolida). Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi.

– Buxoro, 2023. – B.97.

3. Ismailov G'.M. O'zbek tili terminologik tizimlarida semantik usulda termin hosil bo'lishi. Diss.filol.fan.nom. – Toshkent, 2011. – B.14.

4. Jamoloxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikologiyasi. 2002. – B. 12.

5. Kocourek, Rostislav. La langue française de la technique et de la science. Vers une linguistique de la langue savante. Wiesbaden : Oscar Brandstetter Verlag GMBH & Co. KG, 1991.

6. Kuldashova N.B. Fransuz va o'zbek tillarida sport terminologiyasining milliy-madaniy xususiyatlari. Diss.filol.fan.fals.dok. – Buxoro, 2020. – B. 23.

7. Littré E. Dictionnaire de la langue française. Tom 3. Paris, Hachette, 1876. – P. 350.

8. Nishonov P.P. Fransuz va o'zbek tillari yuridik terminologiyasining qiyosiy-tipologik tadqiqi. Filol. fan. nom. diss. avtoref. – Toshkent, 2009. – B.10.

9. O'zbek tilining izohli lug'ati. IV jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", Toshkent, 2008. -74 b.

10. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, «Fan», 2007. – B. 250.

11. www.google.fr

12. Xodjayeva D.I. Tilshunoslik terminlarining leksikografik tahlili (ingliz, rus va o'zbek tillari izohli lug'atlari materiallari misolida) PhD ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Toshkent, 2018. – B. 149-159.

13. Xolmanova T.Sh. Neft va gaz sohasiga oid terminlarning ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish muammolari. Magistrlik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2013. – B. 82.

14. Гак В.Г. *Асимметрия лингвистического знака и некоторые общие проблемы терминологии*. Материалы научного симпозиума. – Москва, Изд-ва МГУ, 1971. – С. 38-41.

15. Голубева-Монаткина Н.М. Французская диалогическая речь (воспросительное предложение) – Москва, Высшая школа, 1985. – С.125.

16. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. – Москва, 1961. – С. 13-14.

17. Реформатский А.А. Мысли о терминологии. – В кн.: Современные проблемы русской терминологии. – Москва, 1986, – С.16.

18. Русско-узбекский словарь. Том II. Ташкент, 1984. – С. 564.

INTERNET TILINING ZAMONAVIY XITOIY TILIGA TA'SIRI

N.X. Norbekova, J.T. Kuralova. Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Annotation: This article discusses the influence of the Internet language on the Chinese language. Information about the emergence of slangs in the Chinese language and their types is presented. In addition, the slangs mentioned in the article are described.